TIJORAT MUNOSABATLARIDA MULOQOTNING AHAMIYATI

Xolisova Gavxaroy Mannobjon qizi
f.f.f.dok dotsent

Annotatsiya: Mustaqillik yillarida o‘zbek tilshunosligi jadal rivojlanish bosqichiga ko‘tarildi. Shu sababli biz tanlagan masala bo‘lgan tijoriy diskurs xususida ayni davrgacha bildirilgan ilmiy qarashlarda bir-biriga mos kelmaslik yoki bir-birini inkor etish holatlari mavjudligi aniq bo‘lib qoldi. Muloqot – murakkab ko‘rinishdagi lisoniy (nutqiy) tafakkur faoliyatidir. Bu faoliyat natijasida nutqiy tuzilmalar hosil bo‘ladi va ushbu tuzilmalar strukturasida lisoniy tafakkur faoliyatining «iz»lari saqlanadi.

Kalit so‘zlar: ma’no, tijoriy diskurs, til tizimi, funksiyalar, muomala madaniyati

Abstract: In the years of independence, Uzbek linguistics reached a stage of rapid development. For this reason, it became clear that there are cases of inconsistency or denial of each other in the scientific views expressed up to the same period regarding the commercial discourse, which is the issue we have chosen. Communication is a linguistic (speech) thinking activity in a complex form. As a result of this activity, speech structures are formed, and the "traces" of linguistic thought activity are stored in the structure of these structures.

Key words: meaning, commercial discourse, language system, functions, culture of behavior

Mamlakatimizda keyingi yillarda tijorat ishlari sezilarli darajada rivojlanib bormoqda. Xalqaro tashkilotlar bilan turli shartnoma va bitimlar imzolanmoqda. Shu o‘rinda tilning mazkur soha rivojiga qo‘shadigan hissasi, tijorat bilan bog‘liq matnlarning mazmuni, ularda lisoniy imkoniyatlarning voqelanishi masalalarini o‘rganish zaruratga aylanib bormoqda.

Mustaqillik yillarida o‘zbek tilshunosligi jadal rivojlanish bosqichiga ko‘tarildi. Shu sababli biz tanlagan masala bo‘lgan tijoriy diskurs xususida ayni davrgacha bildirilgan ilmiy qarashlarda bir-biriga mos kelmaslik yoki bir-birini inkor etish holatlari mavjudligi aniq bo‘lib qoldi. Mazkur qarashlar tilshunosligimizda munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Bu boradagi qarashlarni o‘rganib muayyan bir xulosaga kelish, masalaning yechim topishi va shu asosda ilmiy dalillangan to‘g‘ri fikrga kelish muhim ahamiyat kasb etadi. Xullas, “…. Ilmiy tadqiqot va innovasion faoliyatni rivojlantirish, ijodiy g‘oya va ishlanmalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash vazifasi”[1] tilshunoslikning barcha yo‘nalishlarida tadqiqotlar olib borish va turli amaliy tajribalar o‘tkazishni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, tilni nazariy va amaliy jihatdan tahlil etish, til masalalarini uning sohiblari dunyoqarashi, tafakkuri va olamni lisoniy bilish darajasidan kelib chiqib tadqiq qilish fanda katta yutuqlarni qo‘lga kiritishni ta’minlaydi.

“Tijoriy” – so‘zi ham arab tilidan olingan bo‘lib, savdoga oid, tijoratga oid, tegishli, aloqador degan ma’nolarni anglatadi. Tijoratchi tijorat bilan shug‘ullanuvchi shaxs degan ma’noni beradi[2].

Muloqot –murakkab ko‘rinishdagi lisoniy (nutqiy) tafakkur faoliyatidir. Bu faoliyat natijasida nutqiy tuzilmalar hosil bo‘ladi va ushbu tuzilmalar strukturasida lisoniy tafakkur faoliyatining «iz»lari saqlanadi. Ammo ushbu «iz»larni topish va ularni qismlarga ajratish oson emas, zero, muloqot birligi – matnning tarkib topishida til tizimining barcha elementlari inson ongida tug’iladigan nutqiy qolipni voqelantiruvchi vositalarga aylanadilar[3]. O‘zbek tilshunos olimlari Q. Sodiqov va Q.O. Omonovlarning

[1] Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси www.http://prezident.uz/uz/lists/view/137.
[2] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-том. –Тошкент: **Ўзбекистон миллий энциклопедияси,** 2006. – Б. 33-34.
[3] Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Жиззах: Сангзор, 2007. – Б.231.

fikrlariga ko‘ra, rasmiy uslubning tabiati aniqlikni talab etadi. Aniqlik – hujjatlar uslubining asosiy belgisi[4].

Matnning turg’un, tayyor mahsulot, diskursni esa kechayotgan nutqiy muloqot jarayoni sifatida talqin qilinishi ularning keskin farqlanishiga sabab bo‘ladi. Muloqot – axborot almashuv jarayoni, uning maqsadi ham shu. Axborot uzatish yozma yoki og’zaki usulda kechishi bilan unchalik farq qilmaydi. Hatto dialog ham yozma nutq vositasida kechishi mumkinligini bilamiz (masalan, diplomatik notalar almashinuvi, xufiyona yozishmalar, siyosiy va ilmiy mazmundagi ma’ruzalar avval yozma tayyorlanib, keyin o‘qib beriladi). Ko‘pchilik “ilmiy matn” va “ilmiy diskurs” tushunchalarini bir xil ma’noda anglaydilar.[5]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Сосновская А. М. Деловая коммуникация и переговоры: учеб. пособие. СПб.: Изд-во СЗАГС, 2011. — 8 с.; ил.- С. 96
2. Большаков С. Н. Бизнес-коммуникации : учеб. пособие / С. Н. Большаков, М. О. Потолокова — СПб.: С.-Петерб. гос. ун-т, филол. ф-т, 2012. — 137 с. - С. 62
3. Мандрица В. М. Этика бизнеса - деловое общение / В. М. Мандрица, И. В. Мандрица. - Ростов-на-Дону : РИНХ, 2005 (ООО АзовПечать). - 227 с. - С. 184
4. Желамская В. А. Лингвистическая структура деловой документации на материале французского и итальянского языков: Дисс. канд. филол. наук. – Москва, 2017. – 332 с. – С. 131
5. Беляева Е.И. Грамматика и прагматика побуждения: Английский язык. – Воронеж: Изд-во Воронежского государственного университета, 1992. - 168 с. - С. 16

[4]Содиқов Қ. Омонов Қ.О. Ўзбек тилининг ёзма услублари тарихидан. http://azrefs.org/osimjon-sodiov-udratulla-omonov-zbek-tilining-ezma-uslublari-t.html?page=9
[5] Ўша манба – Б.248.